

Moliyaviy va oziq-ovqat ko'magini olishdagi huquq va majburiyatlaringiz

MIJOZNING (UY XO'JALIGI KATTASINING) TO'LIQ
ISMI

MIJOZNING ID RAQAMI

MAJBURIYATLARINGIZ (Quyidagilarga majbursiz)

- **Sizni ehtiyojmand deb topishimiz uchun talab qilinadigan hujjatlarni topshiring.**
- **Zarur hollarda, bizga dalillarni taqdim qiling.** Ularni o'ringizga biz olib berishimiz ham mumkin. Departamentga taqdim qilinadigan hujjatlar federal va shtat organlari tomonidan tekshiriladi. Tekshiruv davomida departament xodimlari, jumladan firibgarlik ishlari bo'yicha tergovchilar bilan uchrashuvlar tashkil qilinishi mumkin.
- **Department of Social and Health Services (Ijtimoiy va tibbiy xizmatlar departamenti)ga taqdim qilinadigan ma'lumotlar** Health Care Authority (Sog'liqni saqlash boshqarmasi) va tibbiy imtiyozlar birjasi vakolatidagi tibbiy sug'urtani olish huquqiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.
- **Shaxsiy ma'lumotlardagi** (masalan, manzil va daromad) o'zgarishlarni WAC 388-418-0005 ko'rsatmalariga muvofiq taqdim qiling. O'zgarishlar haqida keyingi oyning 10- sanasigacha ma'lum qiling.
- **Agar TANF imtiyozidan foydalanayotgan bo'lsangiz, Division of Child Support (Bolalarni qo'llab-quvvatlash bo'limi, DCS)** bilan birga ishleng. Parvarishingizdagi bola(lar) uchun aliment tayinlash, aliment shartlarini o'zgartirish yoki alimentni undirish hamda (zarur hollarda) otaliki aniqlashirishda DCS bo'limi bilan hamkorlik qilishingiz kerak. DCS bilan hamkorlik sizga, farzandlaringizga yoki vasiylikingizdagi bolalarga vasiy bo'lmagan ota-ona tomonidan zarar olib kelishiga asosli vajlaringiz borligini isbotlab bera olsangiz, DCS bilan hamkorlikdan bosh tortishingiz mumkin.
- **Ariza topshiring** va moliyaviy ko'mak so'raganingizda yoki olayotganingizda boshqa manbalardan daromad olishga qaratilgan tegishli choralarni ko'ring.
- **Zarur hisobotlar va tekshiruv natijalarini to'ldirib bering.**
- **Moliyaviy va oziq-ovqat ko'magi** olishdagi ish talablariga rioya qiling.
- **Nomingizdan boshqa odam oziq-ovqat ko'magi olishini istasangiz,** bizga xabar bering.
- **Sifat nazorati tekshiruvlari bilan hamkorlik qiling.**
- **Oziq-ovqat ko'magini** faqat oila a'zolaringiz uchun oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilishga yo'naltiring.
- **Moliyaviy ko'makni faqat** oila a'zolaringizning manfaati uchun sarflang.
- **Siz faqat ko'makka ariza topshirayotganlarning Social Security Numbers (Ijtimoiy Sug'urta Raqamlari, SSN)** yoki immigratsiya guvohnomasini taqdim qilishingiz lozim. Ko'makka ariza topshirmayotgan oila a'zolarining SSN raqami yoki immigratsiya guvohnomasini taqdim qilmaslikka qaror qilsangiz, ko'makka loyiq deb topilishingiz uchun barcha oila a'zolarining daromadi zarur hollarda tekshirilishi lozim.

Huquqlaringiz (Quyidagilarga majburiy)

- **To'liq ismingiz,** manzilingiz va imzongiz yoki qonuniy vakilingiz imzosi bor arizani qabul qilish.
- **DSHS anketalarini to'ldirishda ko'maklashish.**
- **Tezlashtirilgan** tartibda xizmat ko'rsatish imtiyoziga ega bo'lsangiz, oziq-ovqat ko'magi uchun topshirilgan arizani 7 kunda ko'rib chiqish.
- **Hujjatlar** topshirish davomidagi talabingizga binoan, sizga kvitansiya taqdim qilish.
- Sizga yozma shaklda, odatda 30 kun ichida javob xatini taqdim qilish.
- **Office of Fraud and Accountability (Firibgarlik va hisobdorlik byurosi)ning Fraud Early Detection**(Firibgarlikning oldini olish, FRED) tergovchisi bilan suhbatlashishdan bosh tortishingiz mumkin. Tergovchini uyingizga kiritishga majbur emassiz. Tergovchiga boshqa payt kelishni aytish huquqiga egasiz. Bu ko'mak olish huquqingizga ta'sir qilmaydi.
- **Ish yuzasidan departamentning qaroridan norozi bo'lsangiz, ish ma'muriy sud tomonidan ko'rib chiqilishini** so'rash huquqiga egasiz. Shuningdek, koordinator yoki nozirdan ma'muriy ish yuzasidan sudga shikoyat qilish huquqingizdan foydalanmagan holda, nizoli qaror yoki chorani qayta ko'rib chiqishni so'rashingiz mumkin.
- **Temporary Assistance for Needy Families** (Ehtiyojmand oilalarga vaqtinchalik ko'maklashish, TANF) dasturi doirasida 60 oyluk muddat qoidasi haqida sizni xabardor qilishimiz kerak. Bu muddat asosiy oziq-ovqat mahsulotlari yoki bola parvarishi subsidiyalariga tatbiq qilinmaydi.

EBT kartasi haqida quyidagilarni bilishingiz kerak

- **Imtiyozlardan bemaqsad foydalanish:** EBT kartasi orqali taqsimlanadigan oziq-ovqat va moliyaviy imtiyozlar DSHS xizmatiga imtiyozlardan foydalanish tranzaksiyalarining jurnalini taqdim etishni ko'zda tutadi. Departament tranzaksiya ma'lumotlarini moliyaviy ko'makdan bemaqsad foydalanish yoki oziq-ovqat ko'magini naqd pulga yoki boshqa qimmatbaho buyumlarga ayirboshlash (noqonuniy savdo) holatlarini tekshirishda foydalanadi.
- **EBT kartasini almashtirish:** EBT kartalarini almashtirish uchun to'lov undirilishi mumkin. EBT kartasi va personal identification number (shaxsiy identifikatsiya raqami, PIN)ni xavfsiz va ishonchli joyda saqlang.
- **Yuqori balansli EBT kartalari:** Imtiyozlardan bir necha oy davomida foydalanmasangiz yoki bir necha oydan keyin yuqori balans to'plasangiz, holatni tekshirish yoki imtiyozlarga bo'lgan ehtiyojningizni qayta ko'rib chiqish uchun siz bilan bog'lanishimiz mumkin.

Bilishingiz kerak bo'lgan qoidalar (asosiy oziq-ovqat mahsulotlari)	
<ul style="list-style-type: none"> • Ma'lumotlar to'g'riligini tekshirish maqsadida, asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini olish uchun ariza topshirgan shaxslar haqida ma'lumotlarni boshqa federal agentliklarga yuboramiz. Ma'lumotlar noto'g'ri deb topilsa, ariza topshirgan shaxslar asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini olmay qolishlari mumkin. Qasddan noto'g'ri ma'lumotni taqdim qilgan shaxs, jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini olish qoidalarini qasddan buzganlik uchun jazolar qatoriga dasturdan chetlashtirish, jarima solish yoki qamoq kiradi. • Oziq-ovqat ko'magini naqd pul, narkotik moddalar, qurol yoki vakolatli chakana sotuvchidan olingan oziq-ovqatdan tashqari boshqa narsaga sotsangiz, sotishga, ayirboshlashga yoki xayriya qilishga urinsangiz, oziq-ovqat ko'magini olish huquqidan: birinchi sodir etilgan huquqbuzarlik uchun kamida bir yil muddatga, ko'pi bilan esa umrbod mahrum bo'lishingiz mumkin. Washington shtatidan chiqib ketib, boshqa shtatda ko'mak olishga ariza topshirsangiz, bu jazo o'z kuchini yo'qotmaydi. • Asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini olish bo'yicha ish talablarida ishtirok etishingiz talab qilinsa va unda ishtirok etmasangiz, birinchi bosh tortishda – bir oyga va ish talablari bajarilmaguncha, ikkinchi bosh tortishda – uch oyga va ish talablari bajarilmaguncha, uchinchi va undan keyingi bosh tortishda esa olti oyga dasturdan chetlashtirilasisz. • Bu sahifada keltirilgan asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini olish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik haqida ogohlantirishda ko'rsatilgan dastur qoidalarini buzganingiz uchun asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini olish dasturidan chetlatilishingiz mumkin. • Departament uy xo'jaligi xarajatlarini asosiy oziq-ovqat mahsulotlari xarajatlari tarkibiga qo'shishini istasangiz, ushbu uy xo'jaligi xarajatlari haqida departamentga xabar bering. Bu hisobotlarni bermasangiz va xarajatlarni asoslab bermasangiz, asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini olish imtiyoziga ko'proq loyiq yoki umuman noloyiq ekanligingizga aniqlik kiritishimizda ushbu xarajatlardan foydalanishimizni istamasligingizni bildirasisz. 	
Bilishingiz kerak bo'lgan qoidalar (naqd pul)	
<ul style="list-style-type: none"> • Temporary Assistance for Needy Families (Ehtiyojmand oilalarga vaqtinchalik ko'maklashish, TANF) doirasida ko'mak olish orqali farzandingiz va turmush o'rtog'ingizning aliment huquqlarini Division of Child Support (Bolalarni qo'llab-quvvatlash bo'limi) bo'limiga taqdim qilasiz. Bu siz olishingiz kerak bo'lgan aliment summasi siz olgan davlat ko'magi miqdorigacha bo'lgan qiymatda DCS tomonidan ushlab qolishi mumkinligini anglatadi. TANF dasturida ishtirok etayotganingizda bola uchun nafaqa yoki aliment olgan bo'lsangiz, bu haqda darhol DCS xizmatiga xabar berishingiz lozim. • TANF (Ehtiyojmand oilalarga vaqtinchalik ko'maklashish) doirasida ko'mak olishni to'xtatsangiz, alimentlar to'loviga taalluqli barcha ma'lumotlarni, masalan bolaning ko'chgani yoki yashash manzili o'zgartirish haqida ma'lumotlarni DCS (Bolalarni qo'llab-quvvatlash bo'limi)ga taqdim qilishingiz kerak. • TANF doirasida ko'mak olayotgan bo'lsangiz, vaqtinchalik favqulodda uy-joy xarajatlarini qoplash uchun moliyaviy yordam so'rashingiz mumkin. <p>Fuqarolik huquqlari bo'yicha federal qonun va U.S. Department of Agriculture (AQSH qishloq xo'jaligi departamenti, USDA) fuqarolik huquqlari qoidalarini va siyosatiga muvofiq, bu muassasada shaxsning irqi, rangi, millati, jinsi (jumladan, jinsiy identifikatsiyasi va oriyentatsiyasi), diniy e'tiqodi, nogironligi, yoshi, siyosiy mafkurasiga ko'ra kamsitilishi va fuqarolik huquqini himoya qilish bo'yicha avvalgi faoliyati yuzasidan ta'qib qilinishi taqiqlanadi.</p> <p>Dastur ma'lumotlari ingliz tilidan boshqa tillarda ham taqdim qilinishi mumkin. Dastur haqida ma'lumot olish uchun muqobil aloqa vositalariga (masalan, Brayl alifbosi, katta shrift, audioyozuv, Amerika imo-ishoralar tili) ehtiyoji bor nogironlar imtiyozlar olish uchun avval murojaat qilingan agentlikka (shtat yoki mahalliy) murojaat qilishlari kerak. Kar, qulog'i og'ir yoki nutqida nuqsoni bor shaxslar (800) 877-8339 telefon raqami yordamida federal almashinuv xizmati orqali USDA tashkilotiga murojaat qilishlari mumkin.</p> <p>Dastur doirasidagi kamsitish yuzasidan shikoyat qilish uchun shikoyatchi https://www.usda.gov/sites/default/files/documents/ad-3027.pdf veb-sahifasidan onlayn olinadigan AD-3027, USDA dasturining Diskriminatsiya haqida shikoyat shakli shaklini to'ldirib, har qaysi USDA idorasiga topshirishi, (833) 620-1071 telefon raqami orqali murojaat qilishi yoki USDA tashkilotiga xat yuborishi mumkin. Xatda shikoyatchining to'liq ismi, manzili, telefon raqami hamda fuqarolik huquqi buzilishi mohiyati va sanasi haqida Assistant Secretary for Civil Rights(Fuqarolik huquqlari kotibi yordamchisi, ASCR) ni xabardor qilish uchun yetarlicha tavsiflangan ehtimoliy kamsitish xatti-harakatining yozma tavsifi bo'lishi lozim. To'ldirilgan AD-3027 anketasi yoki xat quyidagi manzilga yuborilishi kerak:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Pochta: Food and Nutrition Service (Oziq-ovqat va ozuqa moddalar xizmati), USDA 1320 Braddock Place, Room 334 Alexandria VA 22314; 2. Faks: (833) 256-1665 yoki (202) 690-7442; yoki 3. Email: mailto:FNSCivilRightsComplaints@usda.gov <p>Bu muassasa – teng imkoniyatlar taqdim qiluvchi muassasadir.</p> <p>Quyida imzo chekish orqali men DSHS imtiyozlarini olish va dasturlarda qatnashish bo'yicha huquq va majburiyatlarimga ega ekanligimni bildiraman. Mazkur hujjatni imzolashdan bosh tortsam, bu mening dasturga mosligimga ta'sir qilmasligini, biroq dastur talablarini bajarishga hamon mas'ul ekanligimni va dasturiy yoki jinoiy jazoga tortilishim mumkinligini tushunaman.</p>	
ARIZACHINING IMZOSI	SANA
IKKINCHI ARIZACHINING IMZOSI	SANA